



**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО  
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ  
ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
«ТРАДИЦИИ ИННОВАЦИИ В ИЗУЧЕНИИ  
И ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ»  
(25-26 МАРТА 2022 Г.)**

**Термез - 2022**

Министерство высшего и среднего специального образования  
Республики Узбекистан

Педагогический институт  
Термезского Государственного университета

Факультет языков



Сборник материалов

Международной научно-практической конференции

«ТРАДИЦИИ ИННОВАЦИИ В ИЗУЧЕНИИ  
И ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКОВ»

25-26 марта 2022 года

Термез – 2022 г.

**СОДЕРЖАНИЕ**

**ВСТУПИТЕЛЬНАЯ ЧАСТЬ**

**СЕКЦИЯ 1. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ  
ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ**

1. Абдурахмонова Ш.Р. Бошланғич синфларда она тилини ўқитишнинг долзарб масалалари. (Узбекистан)..... 15-21
2. Алламурадov А.А., Абдурасулова А.А. Она тилимиз-миллатимиз рухидир. (Узбекистан)..... 21-26
3. Ахмедшина Л.Р. Проблема взаимодействия языка и культуры. (Узбекистан)..... 26-31
4. Исаева М.И. Хурсандова С. Она тилим жону дилим. (Узбекистан)..... 31-34
5. Кадирова З.З. А.Навоий насрий асарларидаги перифразаларнинг услубий хусусиятлари. (Узбекистан)..... 34-41
6. Муйдинов К.А. Ўзбек тили суд нутқи лексикасида ибораларнинг ифодаланиши. (Узбекистан)..... 41-45
7. Муйдинова А. Мувашшаҳ шеърини санъати. (Узбекистан)..... 45-50
8. Мухаммаджонова Д.О. Тил-миллат қалби. (Узбекистан)..... 50-55
9. Хужанова О.Т. Особенности употребления дистанционных технологий на уроках литературы. (Узбекистан)..... 55-60
10. Саидов У.Р. Иш ҳужжатларини юритишда тил бирликларидан ўринли фойдаланиш. (Узбекистан)..... 61-66
11. Холиков Н.А. XXI асрда тилшунослик муаммолари ва истикболлари, ўсиш нукталари. (Узбекистан)..... 67-73
12. Хўшбоқова О.Т. Рашидов К.К. Дарсдан ташқари машғулотларда Муҳаммад Юсуфнинг “Иқроп” шери орқали талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш. (Узбекистан)..... 73-77
13. Шофқоров А.М. Такрорий сўз ва бадий такроп. (Узбекистан)..... 78-82
14. Abduqahhorova X.A. O‘zbek tilini o‘qitishda o‘qituvchi nutqi madaniyatining ahamiyati. (Uzbekistan)..... 82-85
15. Qurbonova G.X. O‘zbek tilida osmon jismlarining perifractalarda ifodalanishi. (Uzbekistan)..... 85-90
16. Jo`ranazarova N.Q. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asarida uchragan frazeologik birikmalar tasnifi. (Uzbekistan)..... 90-96
17. Alimov P. Tinchlik – shudir mening eng tansiq so‘zim. (Uzbekistan)..... 96-98

3. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – Б. 140.

4. Маҳмудов Н. Тил. – Т.: Ёзувчи, 1998. – Б. 40.

5. Уринбаев З. Лингвистическая природа редупликаций в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1982. – С. 18;  
Буранова М. Структурно-семантические особенности редупликативных слов в английском и узбекском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1982. –С. 18.

6. Шофқоров А.М. Ўзбек тилида бадиий такрор. – Т., Фан ва технология, 2019. – Б. 120.

## **O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA O‘QITUVCHI NUTQI MADANIYATINING AHAMIYATI**

*Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

+998 (90)245 25 91

*abduqahhorovaxosiyat@gmail.com*

*Muratova Nafisa Baxtiyarovna*

*Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

+998 (93)331 45 85

*muratovanafisa@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda o‘qituvchi nutqi madaniyati masalasi dolzarbligi, shuningdek, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida o‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar hamda madaniy nutqqa erishish yo‘llari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** adabiy norma, nutq madaniyati, nutq me’yorlari, pedagogik mahorat, ta’lim-tarbiya jarayoni.

Bugungi kunda har bir insonning ma’naviy kamolot sari qadam qo‘yishiga, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy rivojida o‘zbek tilining o‘rni beqiyosdir. Demak, har bir millatning ma’naviy qiyofasini ochadigan, uni millat sifatida tanitadigan,

tarixga mangu muhrlaydigan hamda millat taqdirini hal qiladigan uning til hisoblanadi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning qalbida Ona vatanga bo'lgan muhabbat, ezgulik tushunchalarini singdirishda o'zbek tili fanining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Bu fanni o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazishda o'qituvchilarning roli va ularning bilim tajribasi juda ham muhimdir. Ta'lim-tarbiya berish jarayonida murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste'dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo'llashi, o'quvchilarni o'zaro faollikka olib kelishiga bog'liqdir. Har bir pedagog shuni doimo hisobga olishi va esda tutishi lozimki, dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e'tibor qaratiladi. Ta'limni texnologiyalashtirish ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitda hamda ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida uni to'liq boshqarish g'oyasini tashkil etishdir. Yoshlar, o'sib kelayotgan avlod tarbiyasi har bir jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz dunyoga yuz tutdi va jahon bizni tanidi. Biz tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshladik hamda yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal qilishga kirishdik.

Ta'lim berish jarayonida o'qituvchi nutqi madaniyatining nechog'li ahamiyatli ekanligi bugun yaqqol sezilmoqda. O'qituvchi nutqi madaniyatining o'zbek tili fanini o'qitish jarayonida o'ziga xos amaliy soha sifatida tilshunoslikning nazariy fanlaridan olingan bilimlarga suyangan holda to'g'ri, ta'sirli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi. O'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, orfoepik hamda orfografik, imloviy me'yorlarining nisbatan mukammal shakllanganligi o'zbek tili madaniyatining ulkan yutug'idir.

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton "Adabiy asarning mazmuni, undagi g'oyaning oliyjanoblighi, tasvir qilingan odamlar va hodisalarning go'zalligi yoki xunukligi - hammasi o'quvchiga asarning tili orqali yetadi. Shu sababli til

sohasidagi mahorat yozuvchi qobiliyatining eng yorqin alomatidir”, – deganida, eng avvalo, til qurolidan foydalanish mahorati haqida fikr yuritgan.

Nutq madaniyati shunday madaniyatki, u jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisi, muhim jihatidir. Yunon notig‘i Sitseron “Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo‘lishi kerak” – degan. Shunisi aniqki, yaxshi notiq, shunchaki, nutq so‘zlovchi inson emas, aksincha, nutq madaniyatini – notqlik san’atini mukammal egallagan insondir.

De’mak, o‘zbek tili fanini o‘qitishda o‘qituvchidan juda katta mahorat va tajriba talab etiladi. Har bir nutq madaniyatiga erishmoqchi bo‘lgan o‘qituvchi madaniy nutq ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim. Chunki, zamonaviy ta’limda o‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda. Nutq madaniyatiga erishmoqchi bo‘lgan har bir shaxs adabiy til madaniyatini egallamog‘i lozim. Adabiy til ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalari uchun aloqador bo‘lib, albatta, har bir inson nutq madaniyatini egallashi lozim.

Nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi ekan, u jamiyatning yuksak madaniyat sohibi, ya’ni nutq madaniyati sohibi bo‘lishini belgilaydi. Adabiy til madaniyati uchta hodisa (tushuncha)ni o‘z ichiga qamraydi:

- adabiy tilni ongli ishlash (normalash);
- adabiy tilning ishlangan, ya’ni madaniylashgan holati;
- madaniy adabiy til normalaridagi ba’zi holatlarni yanada qayta ishlash

va takomillashtirish.

Nutq tuzish qoidalari quyidagi tartibda bo‘ladi:

- tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatoridan kerakli variantni ajratib nutqda qo‘llash;
- nutqda ishlatiladigan so‘zning anglatgan ma’nolarini har tomonlama bilish, noijodiy taxminiy qo‘llashlardan qochish, chunki betayn so‘z qo‘llash nutqni beburd qiladi;
- omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘qituvchi o‘zbek tili fanini o‘qitish jarayonida adabiy til me‘yorlari hamda nutqning kommunikativ sifatlarini chuqur egallasa, ta‘lim-tarbiya berish jarayonida ko‘zlagan maqsadiga erishadi. Zero, bugungi zamon bilan hamnafas bo‘lgan o‘qituvchida, albatta, madaniy nutq ko‘nikmalari shakllanmog‘i lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rasulov R., Mo‘ydinov Q., Nutq madaniyati . – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti , 2004.
2. Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q., Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T., 2006.
3. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
4. N.Mahmudov. O‘qituvchining nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

### **O‘ZBEK TILIDA BA‘ZI OSMON JISMLARINING PERIFRAZALARDA IFODALANISHI**

*Qurbonova Gavhar Xurramovna,  
TerDUPI o‘qituvchisi, 91 578 85 51,  
qurbonovagavhar1985@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola o‘zbek tili badiiy matnlarida ba‘zi osmon jismlarining perifrazalarda ifodalanishini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, perifrazalarning huddi iboralar kabi nutqning tasviriyligini oshiruvchi til birligi ekanligi, bu birliklarning esa osmon yoritgichlarini nomlashda qay darajada o‘rin tutganligini o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** perifraza, ikkilamchi nominatsiya, sof perifrazalar, kontekstual perifrazalar, o‘zga tilli perifrazalar.

O‘zbek tilshunosligida perifrazalar ham tilning boshqa uslubiy vositalari kabi biroz keyinroq o‘rganila boshlangan lisoniy birlikdir. Ba‘zi olimlar perifrazalarga ikkilamchi nominatsiya [1.3-b.] deb ta‘rif berganlar. Perifraza –